

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.17/30.07.2022.T.06.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

TAXIROVA NARGISA BAXRIDDINOVNA

**AMMONIY NITRATI, SULFATI, DOLOMIT VA FOSFOGIPS ASOSIDA
MURAKKAB O'G'ITLAR OLISH TEXNOLOGIYASI**

02.00.13 - Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD) on technical
sciences**

Taxirova Nargisa Baxriddinovna

Ammoniy nitrati, sulfati, dolomit va fosfogips asosida murakkab o'g'itlar
olish texnologiyasi..... 3

Тахирова Наргиса Бахриддиновна

Технология получения сложных удобрений на основе фосфогипса,
доломита, нитрата и сульфата аммония 21

Takhirova Nargisa Baxriddinovna

Technology for the production of complex fertilizers based on
phosphogypsum, dolomite, ammonium nitrate and sulfate..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 42

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.17/30.07.2022.T.06.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

TAXIROVA NARGISA BAXRIDDINOVNA

**AMMONIY NITRATI, SULFATI, DOLOMIT VA FOSFOGIPS ASOSIDA
MURAKKAB O'G'ITLAR OLISH TEXNOLOGIYASI**

02.00.13 - Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T1783 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.ndktu.uz va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Xudoyberdiyev Fazliddin Isroilovich texnika fanlari falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Umirov Farhod Ergashovich texnika fanlari doktori, professor
	Alimov Umarbek Kadirbergenovich texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi PhD.17/30.07.2022.T.06.03 raqamli Ilmiy kengashning «18» 04 2023 yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shoh ko'chasi, 76 v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining majlislar zali. Tel.: 0 (436) 223-23-32; faks: 0 (436) 223-49-66; (e-mail: nvmi_info@edui.uz).

Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (131 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shoh ko'chasi, 76v-uy. Tel.: 0 (436) 223-23-32; faks: 0 (436) 223-49-66; (e-mail: nvmi_info@edui.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «5» 04 kuni tarqatildi.
(2023 yil «5» 04 dagi 3 raqamli reestr bayonnomasi).



B.F. Muxiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

S.Sh. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

H.M. Vapoyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aksariyat sanoat korxonalarini uchun ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, uning atrof-muhitga zararli ta'sirini kamaytirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishda, ularni mineral o'g'itlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Chunki, qishloq xo'jaligining muhim vazifalaridan biri aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishdan iborat. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda mahsulot tannarxini arzonlashtirish maqsadida, asosan o'zida turli xil ozuqaviy elementlarni saqlaydigan mahalliy minerallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu o'rinda ekinlarni ekish oldidan qo'llashda atmosfera suvlari tomonidan yuvilib ketmaydigan, biroq o'simlikka uning butun vegetativ davrida bir meyyorda hamda sekin ta'sir qiluvchi azotli, fosforli, kaliyli va boshqa murakkab o'g'itlar ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda bugungi kunda ekinlarga samarali va tez ta'sir qiluvchi azotli o'g'itlardan biri ammiakli selitra (AS) hisoblanadi. AS suyuqlanmasi yoki eritmasiga karbonatli, kaliyli, fosfatli, sulfatli va boshqa noorganik qo'shimchalarni qo'shish orqali yaxshi fizik-kimyoviy va tovar xossalarga ega bo'lgan murakkab o'g'itlar olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, selitra suyuqlanmasi, dolomit minerali (DM) va ammoniy sulfati asosida magniyli ohakli-ammiakli selitra (OAS) olish jarayonini o'rganish; AS suyuqlanmasi, DM va fosfogips (FG) asosida fosfogipsli OAS olish jarayonini o'rganish; mahsulotlarning kimyoviy tarkiblari va xossalari DM va FG qo'shimchasi miqdorlarining ta'sirini aniqlash; AS va tanlangan qo'shimchalar asosida fizik-kimyoviy va tovar xossalari yaxshilangan murakkab o'g'itlar olishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda AS suyuqlanmasini mahalliy Qizilqum fosforit uni yoki ohaktosh kukuni bilan qayta ishlash asosida «Navoiyazot» AJda azotfosforli o'g'it (AFO') ishlab chiqarish bo'yicha ilg'or ilmiy asoslangan chora tadbirlarni joriy qilib, qator ilmiy amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo'nalishida “Sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish”, “Ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xom-ashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish”¹ ga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, mahalliy xom-ashyolar ammiakli selitra, dolomit minerali, ammoniy sulfati va fosfogips asosida g'o'za va boshqali don ekinlarini oziqlantirishda zarur bo'lgan tarkibida azotoltingugurkalsiy va magniy saqlovchi murakkab o'g'itlar olish texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'g'risidagi farmoni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60 son «2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha yettita yo'nalishidagi Taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi Farmoni va 2018 yil 25-oktyabrdagi PQ 3983-son «O'zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini tezkor rivojlantirish bo'yicha choralari to'g'risida»gi hamda 2019 yil 3-apreldagi PQ-4265 son «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyasini rivojlantirishning VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ilmiy-texnik adabiyotlarda ASni karbonatli, kaliyli, fosfatli, sulfatli va boshqa noorganik qo'shimchalar bilan qayta ishlash asosida yopishqoqligi bo'lmagan, hamda termik barqarorlashgan AS olish texnologiyasi bo'yicha ilmiy ishlar keng yoritilgan. Jahonda ASning yopishqoqligini bartaraf etish muammosi har xil qo'shimchalar – magniy sulfat, ohak, bo'r, bentonit, kaustik, magnezit, ortoborat kislotasi, diammoniyfosfat, $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ va uni aralashmasidan iborat fosfat-borat-sulfatlarni foydalanish orqali yechilgan (Vincent, J.Russo, L.Brown Marion, С.Д.Фридман, Н.И.Гельперин, А.М.Абросимова, А.С.Скум, Р.Я.Кириндасова, В.А.Клевке, М.А.Миниович, В.М.Олевский, И.И.Стрижевский). Ularning ichida magnezit yoki brusit ASga eng yaxshi modifikator qo'shimcha sifatida qo'llaniladi. Ko'p tonnajli AS tannarxini kamaytirishda magnezit yoki brusitni mahalliy xomashyolarga almashtirish mumkin.

ASning termik barqarorsizlik muammosi uning yopishqoqlik muammosidan ham juda jiddidir. Yevropa, Rossiya va O'zbekistonda ham AS suyuqlanmasiga ohak kukunini kiritish orqali OASni ishlab chiqarish o'zlashtirilgan (Kolaczkowski A., Biskupski A., Kaljuvee T., Edro E., Цеханская Ю.В., Долгов В.В., Таран А.Л., Жмай Л.А., Namazov Sh.S., Jurayev N.Yo.). Rossiyaning «Череповецкий азот» OAJda AS suyuqlanmasiga superfosfat kislotasidan olingan suyuq kompleks o'g'itini qo'shish asosida termik barqarorlashgan AFO' ishlab chiqarish amaliyotga joriy etilgan (Чернышев А.К., Левин Б.В., Туголуков А.В. va boshq.). Bunda ro'y beradigan noqulayliklar: qurilmalarning superfosfat kislotasi tarkibidagi ftoridan korroziyaga uchrashi va Fe, Al, Mg, Ca tuzlarining trubalarga tiqilib qolishi hisoblanadi. Bundan tashqari, respublikamizda superfosfat kislotasi ishlab chiqarilmaydi. Shuning uchun «Navoiyazot» AJda AS suyuqlanmasiga Markaziy Qizilqum fosforit unini kiritish orqali yopishqoqligi bo'lmagan hamda termik barqarorlashgan AFO' olish texnologiyasi joriy etilgan (Namazov Sh.S., Beglov B.M., Kurbaniyazov R.K.).

Mahalliy xomashyolar bazasini kengaytirish maqsadida karbonatli birikmalardan dolomit mineralini, sulfatli birikmalardan ammoniy sulfatini va ballastli qo'shimchalardan fosfogipsni ham jalb qilish mumkin. Ohak va bo'rdan tashqari OAS olishda keng qo'llaniladigan dolomit minerali ham istiqbolli

qo'shimchadir. Shu sababli, termik barqarorlashgan va yaxshi agrokimyoviy samaradorlikka ega dolomit, ammoniy sulfat va fosfogips qo'shimchali OASning ilmiy asoslarini va texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining IZ-20170925259 raqamli «Mahalliy ohaktosh va dolomit qo'shimchali eksportga mo'ljallangan modifikatsiyalangan ammiakli selitra texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish» mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ammiakli selitra suyuqlanmasi, dolomit minerali, ammoniy sulfati va fosfogips asosida murakkab o'g'itlar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Turli kon (Navbahor, Shursu, Dehqonobod) DM lari va "Ammofos-Maxam" AJ ishlab chiqarishi chiqindisi bo'lgan FG ning kimyoviy tarkibi va fizik-mexanik xossalarini aniqlash;

AS suyuqlanmasiga ma'lum massa nisbatlarda dastlab $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ yoki FG ni keyinchalik esa DM ni qo'shish yo'li bilan magniyli OAS olish jarayonlarini tadqiq etish;

eksperimental tajribalar asosida tayyorlangan magniyli OAS namunalarining kimyoviy tarkibi va fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash;

dastlabki komponentlar og'irlik nisbati va haroratga bog'liq ravishda dolomit-sulfat-nitratli va dolomit-gips-nitratli suyuqlanmalarning zichlik va qovushqoqliklarini o'rganish;

yiriklashtirilgan laboratoriya model qurilmasida $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ qo'shimchali va FG tutgan OAS olishning rejimlarini sinovdan o'tkazib mahsulotning tajriba namunalarini olish;

magniyli OAS olishning ishlab chiqilgan texnologiyasini «Elektrokimyozavod» QK-AJda tajriba-sanoat sinovidan o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida AS suyuqlanmasi, dolomit minerallari, ammoniy sulfati, fosfogips, dolomit-sulfat-nitratli va dolomit-gips-nitratli suyuqlanmalar, magniyli OAS tanlangan.

Tadqiqotning predmeti AS suyuqlanmasiga DM, $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ hamda FGni kiritish orqali olingan dolomit-sulfat-nitratli va dolomit-gips-nitratli suyuqlanmalarni sepish usulida donadorlash asosida magniyli OAS olish shuningdek, tayyor o'g'itlarning tarkibi va fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida kimyoviy, (analitik kimyo), fizik-kimyoviy (rentgenografik, elektron-mikroskopik, termik) tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Turli kon dolomit minerallari va ekstraksiyon fosfor kislotasi ishlab chiqarishi chiqindisi bo'lgan FGning fizik-mexanik xossalarini aniqlash asosida ularni selitraga modifikator sifatida qo'llashga yaroqliligi isbotlangan;

AS suyuqlanmasiga dolomit mineralini 100:3 dan 100:45 og'irlik nisbatigacha va $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ hamda FGni dolomit-nitratli aralashma umumiy massasining 3 dan 10% gacha miqdorida qo'shish OAS donalari mustahkamligini 2-8 barobarga oshirishi va yopishqoqligini 2-4 barobargacha kamaytirishi aniqlangan;

AS suyuqlanmasida dolomit mineralining parchalanishi natijasida dolomitning karbonatsizlanishi isbotlangan;

DM, $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ hamda FG ishtirokida ASning parchalanish temperaturasi 211°C dan $262,7^\circ\text{C}$ gacha oshganligi aniqlangan;

AS suyuqlanmasi, DM, $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ va FG asosida OAS olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

AS suyuqlanmasiga DM, $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ va FGni qo'shish yo'li bilan yaxshi fizik-kimyoviy va tovar xossalarga ega bo'lgan, eksportga mo'ljallangan tarkibida 34% dan kam bo'lmagan va 28% dan ko'p bo'lmagan azot tutgan murakkab o'g'itlar (ammoniy sulfat qo'shimchali va fosfogipsli OAS) olish texnologiyalari ishlab chiqilgan;

OASning minoradan sepish yoki jadal aralashtirish usulida oson donadorlanishi uchun ammoniy sulfat, fosfogips va dolomit minerallari samarali reagentlar ekanligi asoslangan;

Ammoniy sulfat qo'shimchali va fosfogipsli OAS olish texnologiyasi «Elektrokimyozavod» QK-AJda tajriba-sanoat sinovlaridan o'tkazilib, jarayonning asosiy texnologik parametrlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlarda olib borilgan sezilarli hajmdagi tajriba va sanoat miqyosida o'tkazilgan eksperimentlar natijalarini qoniqarli mutanosibli kimyoviy, rentgenografik, differensial-termik analiz, elektron mikroskopik va boshqa zamonaviy fizik-kimyoviy, fizik-mexanik tahlil usullari yordamida murakkab tarkibli o'g'itlarni ishlab chiqarish texnologiyasini yaratilganligi, ulardan foydalanishda tajriba-sanoat ko'lamida sinovdan o'tkazilganligi va ishlab chiqarishda qo'llanilganligi asosida olingan natijalarining mos kelishi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Ammiakli selitra o'g'itining tovar xossalari oshirishda modifikatlorlar sifatida dolomit minerali, ammoniy sulfati hamda fosfogipsni qo'shish mumkinligini baholash, shuningdek ishlab chiqilgan ammiakli selitra donalarining mustahkamligi 2-8 barobarga ortishi, yopishqoqligi 2-4 barobarga kamayishi hamda parchalanish temperaturasining 211°C dan $262,7^\circ\text{C}$ gacha oshganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ammiakli selitra suyuqlanmasiga mahalliy dolomit minerali, ammoniy sulfati va fosfogipsni qo'shish yo'li bilan yuqori fizik-kimyoviy va tovar xossalarga ega bo'lgan, tarkibida 34% dan kam bo'lmagan va 28% dan ko'p bo'lmagan azot saqlovchi eksportga yo'naltirilgan murakkab o'g'itlar olish texnologiyasini ishlab chiqish hamda ammoniy sulfat qo'shimchali va fosfogipsli OAS olishning asosiy texnologik parametrlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. AS suyuqlanmasi, DM, $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ va FG asosida murakkab o'g'itlar olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

$(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ qo'shimchali OAS olish texnologiyasi «Elektrokimyozavod» QK-AJ ning “2022-2024 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalari ro'yxati”ga kiritilgan («Elektrokimyozavod» QK-AJning 2022 yil 07 sentyabrdagi 196-son ma'lumotnomasi). Natijada, eksportga mo'ljallangan ohakli-ammiakli selitra ishlab chiqarishini tashkil etish imkoniyatini yaratadi;

AS suyuqlanmasi, DM va FG asosida fosfogipsli OAS olish texnologiyasi «Elektrokimyozavod» QK-AJ ning “2022-2024 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalari ro'yxati”ga kiritilgan («Elektrokimyozavod» QK-AJning 2022 yil 07 sentyabrdagi 196-son ma'lumotnomasi). Natijada, «Ammofos-Maxam» AJ hududida 100 mln. tonnadan ortiq to'planib qolgan fosfogipsni suvda eruvchan oltingugurtli OASga aylantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotlarning natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan Respublika nashrlarida 3 ta va xorijiy jurnallarda 3 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 105 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi bo'yicha tavsiyalar, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

«Ammiakli selitra va ohakli-ammiakli selitranning olinishi, fizik-kimyoviy xossalari hamda qo'llanilishi» deb nomlangan dissertatsiya ishining birinchi bobi adabiyotlar sharhi bo'lib, unda ASning yopishqoqlik va detonatsion xususiyatining yuqoriligi va ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan. ASning yopishqoqlik xossasi uning suyuqlanmasiga namlikni tortuvchi, kristallanish markazlarini hosil qiluvchi, mayda kukunli yopishuvchi, suvda eriydigan hamda erimaydigan va boshqa qo'shimchalarni qo'llash orqali bartaraf etilgan. Portlovchanlik xususiyatini kamaytirish uchun esa quyidagi qo'shimchalar tavsiya etilgan: karbonatli (kalsiy karbonat, ohaktosh, dolomit minerali, bo'r), kaliyli (kaliy xloridi va sulfati), ammoniy kationi tutgan birikmalar (ammoniy sulfati, orto- va polifosfatlari), ballastli moddalar (gips, fosfogips) va boshqalar (fosforit

uni, bentonit) keng tarqalgandir. Ma'lumotlar tahliliga ko'ra, ushbu qo'shimchalarning afzallik va kamchiliklarini o'rgangan holda dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari belgilab olindi. Tadqiqotlar o'tkazish uchun karbonatli birikmalardan kalsiy karbonatidan samaraliroq bo'lgan – dolomit minerali (DM), ammoniy kationi tutgan moddalardan – ammoniy sulfati (NH₄)₂SO₄) hamda ballastli moddalardan – fosfogips (FG) tanlandi.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot obyekti va tajribalar o'tkazish usullarining umumiy tavsifi**» deb nomlangan ikkinchi bobida Shursu, Navbahor va Dehqonobod konlaridan keltirilgan DM lari, hamda «Ammofos-Maxam» AJ ekstraksiyon fosfor kislotasi (EFK) ishlab chiqarishi chiqindisi bo'lgan FGning dispers va kimyoviy tarkiblari, fizik-mexanik xossalari keltirilgan (1-3 jadvallar).

1- jadval

Turli kon DMLari va FG ning disperslik tarkibi

Yiriklik sinfi, mm	Fraksiyalar chiqimi, og'ir. %			
	Shursu	Navbahor	Dehqonobod	Fosfogips
0,5	9,70	13,67	27,84	17,39
0,49 - 0,315	11,03	10,98	13,62	9,16
0,314 - 0,25	4,48	5,60	4,01	2,45
0,24 - 0,16	8,62	3,12	16,78	12,0
0,15 - 0,063	17,31	11,73	11,43	25,72
0,062 - 0,05	48,86	54,90	26,32	33,28
Dastlabki og'irlik	100	100	100	100

2- jadval

Turli kon DMLari va FGning kimyoviy tarkibi

Obyekt nomlari	Komponentlar miqdori, og'ir %									
	CaO	MgO	SiO ₂	MnO	TiO ₂	Na ₂ O	K ₂ O	P ₂ O ₅	SO ₃	CO ₂
Shursu	31,48	19,17	2,87	0,01	0,02	0,05	0,15	0,03	0,30	45,0
Navbahor	28,0	25,0	2,14	0,077	-	0,04	0,12	0,02	0,23	44,30
Dehqonobod	30,56	20,41	2,30	0,01	0,02	0,05	0,07	0,08	2,12	45,16
Fosfogips	37,47	-	2,95	0,072	0,05	-	0,10	1,59	54,49	-

3- jadval

Turli kon DMLari va FGning fizik-mexanik xossalari

Xossa	Ko'rsatkichlar			
	Shursu	Navbahor	Dehqonobod	Fosfogips
Namlik, %	1,5	1,0	1,12	18-20
Erkin sochma zichlik, gr/sm ³	1,23	1,26	1,24	2,2-2,4
Zichlashgan zichlik, gr/sm ³	2,80	2,82	2,79	2,9-3,1
Qiyalik burchagi, grad.	41°10'	40°02'	39°56'	36°21'
Sochiluvchanlik, soniya	17,76	18,0	17,92	15,35
Gigroskopik nuqta, %	41,65	42,10	42,89	44,30
Namlik sig'imi, %	8,04	9,22	8,53	7,62
10 % li suspenziya pH	8,82	9,05	8,76	3,29-3,5

Maydalangan “Shursu”, “Navbahor” va “Dehqonobod” DMLari hamda FGning disperslik tarkibiga ko’ra ko’proq qismi (og’ir. %) asosan yiriklik sinfi 0,5; 0,49-0,315; 0,314-0,25; 0,24-0,16; 0,15-0,063 va 0,062-0,05 mm bo’lgan o’lchamlarida aniqlandi (1-jadval).

2-jadvaldan aniqlandiki, “Shursu” DM tarkibida 31,48% CaO va 19,17% MgO elementlari mavjud bo’lsa, bu ko’rsatkichlar “Navbahor” va “Dehqonobod” DMLarida mos ravishda 28% va 25%; hamda 30,56 va 20,41% ni tashkil etadi. FGning tarkibida esa 37,47% CaO va 54,49% SO₃ mavjud. Bundan xulosa qilish mumkinki, ASga qo’shimcha sifatida DM qo’llanilsa selitranning tarkibi azot elementidan tashqari o’simliklar uchun zarur bo’lgan ozuqa elementlari CaO va MgO bilan agarda, FG qo’llanilsa oltingugurt elementi bilan boyiydi.

3-jadvalga ko’ra, 1-1,5% namlikda DM erkin sochma zichlik Shursu DM uchun 1,23 gr/sm³; Navbahor DM uchun –1,26 gr/sm³; Dehqonobod DM uchun 1,24 gr/sm³ va FG uchun 2,2-2,4 gr/sm³ ga teng. Turli kon DM namunalarining tabiiy qiyalik burchagi qiymati 39-41° oraliq’ini tashkil etgan bo’lsa, FG uchun bu ko’rsatkich 36°21’ni tashkil etadi. Tanlangan obyektlarning sochiluvchanligi esa tekis, hech qanday qiyinchiliklarsiz tarqaldi. Namlik sig’imi chegarasi DM uchun 8,04-9,22%, FG uchun esa 7,62% bo’lib, undan yuqori namlikda ushbu xom ashyolar o’zining sochiluvchanliklarini yo’qotadi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, 8,76 dan 9,05 gacha pH qiymatiga ega bo’lgan DM ASning nordonligini samarali neytrallaydi. Tanlangan qo’shimchalarning ta’sir mexanizmini o’rganish uchun AS suyuqlanmasiga DM, (NH₄)₂SO₄ va FG ni kiritib, hosil qilingan dolomit-sulfat-nitratli yoki dolomit-gips-nitratli suyuqlanmalarni sochish (приллирования) yoki jadal aralashtirish (окатка) yo’li bilan magniyli OAS namunalari olindi.

Dissertasiyaning «**Ammiakli selitra suyuqlanmasi, dolomit minerali va ammoniy sulfati asosida magniyli ohakli-ammiakli selitra olish jarayonlarini tadqiq etish**» deb nomlangan uchinchi bobida AS suyuqlanmasiga AS:DM=100:3 dan 100:45 og’irlik nisbatida DM ni kiritib, hosil qilingan dolomit-nitratli aralashmaga umumiy massaning 3, 5, 7 va 10% miqdorida (NH₄)₂SO₄ qo’shib olingan magniyli OAS namunalarining tarkib va xossalari o’rganilgan. Tajribalar quyidagicha olib borildi. 12X18N10T markali zanglamaydigan po’latdan yasalgan metall stakanga o’lchangan kimyoviy toza NH₄NO₃ solindi va u elektroplita yordamida 170°C haroratda suyuqlantirildi. Selitra suyuqlanmasiga AS:DM=100:3 dan 100:45 gacha og’irlik nisbatida DMni kiritish orqali hosil qilingan dolomit-nitratli suyuqlanmaga umumiy massasining 3-10% miqdorda (NH₄)₂SO₄ dan qo’shildi. Dolomit-sulfat-nitratli aralashma 175-180°C oraliq’ida 10 daqiqa davomida aralashtirib turildi. Olingan suyuqlanmalar sochish usulida donadorlandi. Tayyorlangan namunalari maydalandi va standart usullar bo’yicha tahlil qilindi (4-jadval).

Aniqlandiki, AS suyuqlanmasiga AS:DM=100:3 dan 100:45 gacha DMni qo’shish orqali olingan dolomit-nitratli suyuqlanmada kristallanish harorati keskin tarzda 161,4°C dan 152,1°C gacha pasayadi.

Bu holat dolomit minerali tarkibida erimaydigan komponentlar selitra suyuqlanmasi tarkibida markaziy kristallar hosil qilib, dolomit-nitratli suyuqlanmaning qotishini tezlashtirishi bilan tushuntiriladi.

Biroq, AS:DM=100:(3-45) nisbatida olingan dolomit-nitratli suyuqlanmaga uning umumiy massasining 3-10% miqdorida $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ dan qo'shish dolomit-sulfat-nitratli suyuqlanmaning kristallanish haroratini 163,8°C dan 158,7°C gacha ya'ni, dolomit-nitratli suyuqlanmaga nisbatan (161,4-152,1°C) 8,2°C gacha ko'taradi. Demak, OASga qo'shimcha sifatida qo'llanilgan $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ dolomit-sulfat-nitratli suyuqlanmaning kristallanish haroratini ma'lum darajada oshiradi va suyuqlanma yanada yengilroq donadorlanadi.

4-jadvaldan ko'rinmoqdaki, 100g AS suyuqlanmasiga DMni 3gr dan 45gr gacha stexiometrik og'irlik nisbatida va uning umumiy massasining 3-10% gacha miqdorda $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ qo'shib olingan magniyli OASda Numum. miqdori 33,58 dan 23,82% gacha kamayadi, SO_3 , CaO va MgO miqdorlari mos ravishda 1,80% dan 6,07% gacha, 0,82% dan 9,48% gacha va 0,48% dan 5,75% gacha oshadi. Bunda ozuqa komponentlari yig'indisi ($\text{N}+\text{SO}_3+\text{CaO}+\text{MgO}$) 36,68-45,12% oralig'ida bo'ladi.


4-jadval

AS suyuqlanmasi, "Shursu" DM va $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ asosida olingan magniyli ohakli-ammiakli selitranning tarkibi va kristallanish harorati

AS:DM og'irlik nisbati	Aralashmada $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ miqdori, %	Komponentlar miqdori, og'ir. %				Kristallanish harorati, °C
		N	SO_3	CaO	MgO	
«Toza» NH_4NO_3		34,96	–	–	–	167,0
Magnezit qo'shimchali AS		34,50	–	–	0,28	164,3
100 : 3	–	33,74	–	0,91	0,57	161,4
100 : 3	3	33,58	1,80	0,87	0,53	163,8
100 : 3	5	33,32	3,05	0,84	0,51	164,0
100 : 3	7	33,06	4,25	0,83	0,50	164,7
100 : 3	10	32,68	6,0	0,82	0,48	165,2
100 : 10	–	31,93	–	2,86	1,75	159,3
100 : 10	3	31,52	2,82	2,75	1,67	162,5
100 : 10	5	31,28	3,03	2,71	1,62	162,9
100 : 10	7	31,04	4,22	2,63	1,60	163,6
100 : 10	10	30,73	6,05	2,57	1,54	164,0
100 : 20	–	28,91	–	5,22	3,16	156,9
100 : 20	3	28,88	1,80	5,04	3,09	161,7
100 : 20	5	28,75	3,02	4,96	3,04	162,3
100 : 20	7	28,57	4,24	4,87	2,95	162,8
100 : 20	10	28,35	6,05	4,70	2,85	163,2
100 : 30	–	26,82	–	7,21	4,40	154,5
100 : 30	3	26,73	1,81	7,04	4,26	160,1
100 : 30	5	26,61	3,01	6,87	4,18	161,0
100 : 30	7	26,49	4,23	6,74	4,09	161,8
100 : 30	10	26,33	6,06	6,53	3,95	162,7
100 : 45	–	24,16	–	9,60	6,02	152,1
100 : 45	3	24,03	1,86	9,48	5,75	158,7
100 : 45	5	23,95	3,05	9,27	5,63	159,2
100 : 45	7	23,91	4,25	9,05	5,51	159,6
100 : 45	10	23,82	6,07	8,78	5,33	160,3

“Navbahor” hamda “Dehqonobod” DMLari asosida olingan magniyli OAS namunalarning tarkiblari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar “Shursu” DM asosida olingan namunalarnikiga juda yaqin bo‘lganligi tufayli avtoreferatda keltirilmadi.

Shuni ta‘kidlash joizki, AS suyuqlanmasini DM bilan aralashtirishda quyidagi parchalanish reaksiyasi sodir bo‘ladi:



Ushbu reaksiya bo‘yicha DM-CaMg(CO₃)₂ ning ma‘lum darajada karbonatsizlanishi aniqlandi.

Natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

Tahlillar ko‘rsatdiki, 170-180°C haroratlarda va barcha o‘rganilgan og‘irlik nisbatlarda AS suyuqlanmasining DM va (NH₄)₂SO₄ bilan o‘zaro ta‘sirlashuv jarayoni yetarlicha jadal boradi.

5-jadval

AS suyuqlanmasi, “Shursu” DM va (NH₄)₂SO₄ asosida olingan magniyli ohakli-ammiakli selitraning karbonatsizlanish kinetikasi

Tasirla- shuv vaqti, daq.	O‘rganilgan harorat oraliqlari, °C					
	170		175		180	
	CO ₂ , %	Karbonatsizlanish darajasi. %	CO ₂ , %	Karbonatsizlanish darajasi. %	CO ₂ , %	Karbonatsizlanish darajasi. %
AC:DM = 100:3 va 3% (NH ₄) ₂ SO ₄ qo‘shib olingan magniyli OAS namunasi (CO ₂ 1,27%)						
3	0,88	30,82	0,84	34,08	0,81	36,10
10	0,84	34,0	0,79	37,63	0,76	40,23
30	0,76	39,93	0,72	43,63	0,68	46,19
60	0,71	43,71	0,66	48,23	0,63	50,45
90	0,67	47,02	0,62	51,08	0,58	54,51
120	0,64	49,36	0,59	53,24	0,54	57,38
AC:DM = 100:20 va 3% (NH ₄) ₂ SO ₄ qo‘shib olingan magniyli OAS namunasi (CO ₂ 7,28%)						
3	5,33	26,75	5,18	28,78	5,00	31,29
10	5,16	29,07	4,99	31,52	4,78	34,32
30	4,83	33,62	4,66	36,02	4,46	38,80
60	4,53	37,71	4,34	40,36	4,13	43,22
90	4,24	41,81	4,06	44,23	3,92	46,18
120	3,98	45,29	3,86	47,0	3,59	50,67
AC:DM = 100:45 va 3% (NH ₄) ₂ SO ₄ qo‘shib olingan magniyli OAS namunasi (CO ₂ 13,56%)						
3	10,82	20,19	10,50	22,55	10,29	24,12
10	10,51	22,51	10,15	25,15	9,86	27,26
30	10,02	26,13	9,63	28,97	9,28	31,55
60	9,56	29,47	9,10	32,88	8,71	35,75
90	9,12	32,78	8,58	36,76	8,12	40,14
120	8,82	34,96	8,00	41,03	7,41	45,39

Dolomit-sulfat-nitratli aralashmada DM miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, uning karbonatsizlanish darajasi ham shuncha kam bo‘ladi. Misol uchun, AS:DM=100:3 nisbatda va 3% (NH₄)₂SO₄ qo‘shib olingan mahsulotda haroratning 170°C dan 180°C gacha ko‘tarilishi bilan 30 daqiqada DM karbonatsizlanish darajasi 39,93% dan 46,19% gacha oshib borgan bo‘lsa, AS:DM=100:45 nisbatda va shuncha miqdor (NH₄)₂SO₄ qo‘shib olingan magniyli OAS da bu ko‘rsatkich 26,13-31,55%

ni tashkil etdi. Bu jarayonda, dastlabki komponentlarning o‘zaro ta’sirlashuvi uchun 10 daqiqa yetarli bo‘ladi.

6-jadvalda AS suyuqlanmasi, “Shursu” DM va $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ asosida olingan magniyli OAS namunalarining asosiy tovar xossalari keltirilgan. AS suyuqlanmasida DM va $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ning massa ulushi ortib borishi, mahsulotlarning donalari mustahkamligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan holda 3,24 MPa dan 12,76 MPa gacha oshiradi. DM va $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ qo‘shimchali OAS donalarining yopishqoqligi 3,11-1,02 kg/sm^2 tashkil etadi, bu qo‘shimchasiz ASga qaraganda ($5,62 \text{ kg}/\text{sm}^2$) mos ravishda 1,8 dan 5,5 barobargacha pastdir.

6-jadval


AS suyuqlanmasi, “Shursu” DM va $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ asosida olingan magniyli ohakli-ammiakli selitrasi namunalarining xossalari

AS:DM og‘irlik nisbati	Aralashmada $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ miqdori, %	Donalar mustahkamligi, MPa	Donalar yopishqoqli gi, kg/sm^2	Donalar g‘ovakligi, %	Donalar dizel moyini shimishi, gr.	Donalar suvda erish vaqti, soniya
«Toza» NH_4NO_3		1,32	5,62	22,0	4,82	44,60
Magnezit qo‘shimchali AS		1,58	4,67	9,10	4,33	46,80
100 : 3	–	2,81	3,24	8,36	3,12	56,90
100 : 3	3	3,24	3,11	8,24	3,04	63,52
100 : 3	5	3,48	3,05	8,05	2,95	66,27
100 : 3	7	3,73	2,98	7,90	2,87	73,30
100 : 3	10	3,95	2,93	7,72	2,80	76,74
100 : 10	–	4,42	2,87	7,54	2,76	58,65
100 : 10	3	5,20	2,69	7,48	2,64	80,63
100 : 10	5	5,43	2,62	7,37	2,58	85,0
100 : 10	7	5,67	2,56	7,31	2,51	87,49
100 : 10	10	5,92	2,50	7,24	2,43	92,71
100 : 20	–	6,40	2,43	7,12	2,38	61,34
100 : 20	3	7,11	2,36	7,05	2,32	94,87
100 : 20	5	7,43	2,28	6,89	2,21	100,03
100 : 20	7	7,63	2,21	6,74	2,15	104,10
100 : 20	10	7,88	2,15	6,60	2,06	109,32
100 : 30	–	8,35	2,08	6,45	1,94	64,57
100 : 30	3	9,03	1,97	6,37	1,87	111,54
100 : 30	5	9,38	1,90	6,24	1,79	116,65
100 : 30	7	9,57	1,86	6,11	1,70	120,79
100 : 30	10	9,84	1,82	5,96	1,62	126,0
100 : 45	–	10,77	1,74	5,79	1,51	68,03
100 : 45	3	12,02	1,57	5,54	1,43	131,56
100 : 45	5	12,27	1,41	5,32	1,35	136,20
100 : 45	7	12,51	1,25	5,09	1,24	138,82
100 : 45	10	12,76	1,02	4,83	1,12	142,61


Ishning keyinchi bosqichida magniyli OAS namunalarining rentgenografik, elektron-mikroskopik va termik tadqiqotlari o‘tkazildi.

1 va 2- rasmlarda “toza” NH_4NO_3 (4,94; 3,95; 3,75; 3,65; 3,08 Å) va “Shursu” DM- $\text{CaMg}(\text{CO}_3)_2$ intensiv cho‘qqilari (5,35; 4,04; 3,72; 2,89; 2,67 Å) bilan birgalikda NH_4NO_3 suyuqlanmasi va DM o‘zaro ta’sirlashuv jarayonida hosil

bo'lgan $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ va $\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ tuzlarini ham mavjudligini tasdiqlovchi mos ravishdagi 10,7; 8,08; 7,65; 7,19; 6,01 Å va 8,4; 6,02; 5,94; 5,35 Å difraksiyon cho'qqilari kuzatildi.



1-rasm. AS:DM = 100:3 nisbatida va 5% $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ qo'shib olingan magniyli ohakli-ammiakli selitra namunasining rentgenogrammasi




2-rasm. AS:DM = 100:20 nisbatida va 5% $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ qo'shib olingan magniyli OAS namunasining rentgenogrammasi

Elektron-mikroskopik tadqiqot natijalariga ko'ra, DM va $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ qo'shimchalarining mayda kristall zarrachalari AS donalarida kristallanish markazlarini hosil qilgan holda selitra donalarining g'ovaklik darajasi o'lchamlarini kichraytiradi. Ushbu fakt ham ammoniy sulfat qo'shimchali OAS namunalari donalarining mustahkamligini oshishini, ularning yopishqoqligi va g'ovakligini kamayishini, dizel yoqilg'isini kam shimishi sabablarini tushuntiradi.

O'rganilgan 165-180°C harorat oraliqlarida dolomit-sulfat-nitrati suyuqlanmalarining zichlik va qovushqoqlik qiymatlari 1,561-2,076 kg/sm² va

5,65-16,62 sPz oralig'ida bo'ladi. Ushbu suyuqlanmalar yetarlicha oquvchanlikka ega va ularni sochish yoki jadal aralashtirish usulida ortiqcha texnologik qiyinchiliklarsiz donadorlash mumkin.




3-rasm. Ammoniy sulfat qo'shimchali magniyli ohakli-ammiakli selitra suyuqlanmalari zichligining harorat va konsentratsiyaga bog'liqlik nomogrammasi

Laboratoriya sharoitida AS suyuqlanmasi, DM va $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ asosida magniyli OAS olish texnologiyasi sinovdan o'tkazildi va yangi turdagi o'g'it ishlab chiqarishning moddiy balanslari tuzildi hamda prinsipial texnologik sxemasi ishlab chiqildi (4-rasm).





Ushbu texnologik sxema bo'yicha AS suyuqlanmasi sig'imli bak (1) dan nasos (2) yordamida reaktor-aralashtirgich (3) ga uzatiladi. Bir vaqtning o'zida DM hamda $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4/\text{FG}$ ham bunker (4, 6) dan mikrodozatorlar (5) orqali reaktor-aralashtirgich (3) ga kelib tushadi. Reaktor-aralashtirgichda AS suyuqlanmasi bilan DM va $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ 10 daqiqa davomida yaxshilab aralashtiriladi. Olingan dolomit-sulfat-nitratli suyuqlanma shnekli donadorlashtirgich (7) ga uzatiladi. Bir vaqtning o'zida retur ham shnekli donadorlashtirgich (7) ga kelib tushadi. So'ngra, donadorlovchi baraban (8) ga uzatiladi va jadal aralashtirish usulida mahsulot donador holatga keltiriladi. Donadorlangan o'g'itlar klassifikator (9) yordamida saralanadi. 1-4 mm o'lchamdagi donalar qadoqlashga yuboriladi. Chiqindi changlar dastlab siklon (12) ga va u yerdan absorbsiyaga yuboriladi.

$(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ qo'shimchali OAS ishlab chiqarish texnologiyasi «Elektrokimyozavod» QK-AJ tajriba qurilmasida AS:DM=100:20 nisbati va 5% $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ qo'shimchali OASdan 1,8 tonna ishlab chiqarildi.




4-rasm. $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4/\text{FG}$ qo‘shimchali OAS olishning prinsipial texnologik sxemasi: 1- NH_4NO_3 suyuqlanmasi uchun sig‘imli bak; 2-nasos; 3–shnekli aralashtirgich reaktori; 4- $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4/\text{FG}$ uchun bunker; 5-shnekli dozatorlar; 6-dolomit minerali uchun bunker; 7–shnekli donadorlashtirgich; 8-donadorlovchi baraban; 9-klassifikator; 10-maydalagich; 11-qaynoq qatlamli sovtgich; 12- siklon.

Dissertasiyaning «**Ammiakli selitra suyuqlanmasi, dolomit minerali va fosfogips asosida ohakli-ammiakli selitra olish jarayonlarini tadqiq etish**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida AS suyuqlanmasiga AS:DM=100:(3-45) og‘irlik nisbatida DM kiritib hosil qilingan dolomit-nitratli aralashmaga uning umumiy massasining 3, 5, 7 va 10% miqdorida FG qo‘shish asosida olingan fosfogipsli OAS namunalarining tarkib va xossalari o‘rganilgan. 100gr AS suyuqlanmasiga DMni 3gr dan 45gr gacha og‘irlik nisbatida va dolomit-nitratli aralashma umumiy massasining 3-10% miqdorida FG qo‘shib olingan magniyli OASda $N_{\text{umum.}}$ miqdori 32,94% dan 21,72% gacha kamayadi, SO_3 , CaO va MgO miqdorlari mos ravishda 1,56% dan 5,39% gacha, 2,0% dan 12,49% gacha va 0,48% dan 5,74% gacha oshadi. Bunda ozuqa komponentlari yig‘indisi ($\text{N}+\text{SO}_3+\text{CaO}+\text{MgO}$) 36,98-45,34% oralig‘ida bo‘ladi. O‘rganilgan og‘irlik nisbatlarida olingan fosfogipsli OAS donalari mustahkamligi 4,36 MPa dan 13,68 MPa oralig‘ida bo‘ldi. Ushbu o‘g‘itning namunalari donalarining yopishqoqligi esa 3,03-0,78 kg/sm^2 ni tashkil etadi. 100gr ASga 3gr dan 45gr gacha DM va 3-10% FG qo‘shish olingan o‘g‘it donalari g‘ovakligini mos ravishda 7,85 dan 4,27% gacha kamaytirishga yordam bergan bo‘lsa, dizel moyini shimishi 100gr mahsulotga nisbatan 2,85gr dan 0,89gr gacha o‘zgaradi (5-rasm).



5-rasm. Fosfogipsli OAS namunalari donalarining mustahkamligi (a), yopishqoqligi (b), g'ovakligi (v) va dizel moyini shimishi (g) o'zgarishining AS:DM nisbati va FG qo'shimchasining miqdoriga bog'liqligi

Fosfogips qo'shimchali magniyli ohakli-ammiakli selitra namunalari donalarining 20↔60°C qizdirish-sovitishda ko'p qaytariluvchi termik-sikllarga termik bardoshlilik 2-5 kun davomida aniqlandi. 10 termosikldan so'ng "toza" NH₄NO₃ donalari 5% gacha buzilsa, 90 ta termotsikldan so'ng esa uning donalari to'liq buziladi. 70 ta termotsikldan so'ng tarkibida 3% dan DM va FG tutgan OAS donalari 6% ga buziladi. AS:DM = 100:20 va 5% fosfogips tutgan OAS maqbul nisbatdagi OAS donalar butunligini 84 ta termotsiklgacha to'liq, 100 ta termotsikldan so'ng esa 73% gacha saqlab qoladi. Demak, NH₄NO₃ suyuqlanmasida DM va FG miqdorlari qancha ko'p bo'lsa, donalar termik turg'unligi shuncha yuqori bo'ladi. O'rganilgan 165-180°C harorat oralig'ida dolomit-gips-nitralli suyuqlanmaning zichlik va qovushqoqlik qiymatlari 1,572-2,184 kg/sm² va 6,02-21,3 sPz oralig'ida bo'ladi va ushbu suyuqlanmalarning barchasi donadorlovchi qurilmalarda oson donadorlanadi. AS suyuqlanmasi, DM va FG qo'shimchasi asosida fosfogipsli OAS ishlab chiqarishning prinsipial texnologik sxemasi ishlab chiqildi va moddiy balanslari tuzildi (6-rasm).



6- rasm. Fosfogipsli OAS ishlab chiqarishning blok-tizimi

Donadorlangan fosfogipsli OASning tajriba partiyasini olish uchun DM va FG mikrodozator orqali reaktor-aralastirgichga beriladi va bu yerga bir vaqtning o'zida AS suyuqlanmasi ham kelib tushadi. Aralastirish vaqti 10 daqiqani tashkil etadi. Keyinchalik, dolomit-gips-nitratli suyuqlanma retur ishtirokida shnekli donadorlashtirgichga kelib tushadi va u yerda sovush davomida yumaloq shakldagi qattiq donalar hosil bo'ladi. Mahsulotni yakuniy donadorlash qarama-qarshi oqimdagi sovuq atmosfera havosi yordamida aylanmali barabanda amalga oshiriladi. «Elektrokimyozavod» QK-AJ tajriba qurilmasida sinovlar davomida og'irlik nisbati AS : DM = 100:20 va 3% fosfogips tutgan OAS namunasidan 1,5 tonna tajriba partiyasi ishlab chiqarildi.

XULOSA

«Ammoniy nitrati, sulfati, dolomit va fosfogips asosida murakkab o'g'itlar olish texnologiyasi» mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Turli konlar dolomit minerallari (Shursu, Navbahor, Dehqonobod) va "Ammofos-Maxam" AJ ishlab chiqarishi chiqindisi bo'lgan fosfogipsning tarkib va xossalardan kelib chiqib, ularni ASga modifikator qo'shimcha sifatida oldindan qo'llash mumkinligi imkonini berdi.

2. "Toza" NH₄NO₃ suyuqlanmasiga AS:DM=100:3 dan 100:45 gacha og'irlik nisbatida turli xil dolomit minerallarini qo'shishdan hosil bo'lgan dolomit-nitratli suyuqlanmaga umumiy massaning 3-10% miqdorida (NH₄)₂SO₄ kiritish orqali

OAS olish jarayoni o'rganildi. Bunda OAS tovar xossalari AS:DM og'irlik nisbatiga bog'liq ravishda o'zgaradi.

3. O'rganilgan og'irlik nisbatlarda AS suyuqlanmasiga dolomit minerali va $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ qo'shish OAS namunalar donalarining yopishqoqligi, g'ovakligi va dizel moyini shimishini kamaytirishga yordam berdi. Dolomit minerali va ammoniy sulfati ASning parchalanishiga ingibitorlik ta'sirini ko'rsatdi va uning struktura buzilish temperaturasini 211°C dan $262,7^\circ\text{C}$ gacha oshirdi.

4. Laboratoriya sharoitida olib borilgan tajribalar va o'tkazilgan fizik-kimyoviy tahlillar natijasida $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4/\text{FG}$ qo'shimchali OAS olishning printsiptial texnologik sxemasi ishlab chiqildi va moddiy balans hisoblandi. O'rganilgan barcha og'irlik nisbatlari va $165-180^\circ\text{C}$ temperaturalar oraliqlarida dolomit-sulfat-nitratli suyuqlanmalarning zichlik va qovushqoqliklari sepish yoki jadal aralashtirish usuli yordamida donadorlash uchun yaroqli.

5. Toza NH_4NO_3 suyuqlanmasiga AS:DM=100:3 dan 100:45 gacha og'irlik nisbatida turli kon dolomit minerallarini qo'shishdan hosil bo'lgan dolomit-nitratli suyuqlanmaga uning umumiy massasining 3-10% miqdorida fosfogips kiritish orqali OAS olish jarayoni o'rganildi. O'rganilgan og'irlik nisbatlarda AS suyuqlanmasiga dolomit minerali va fosfogips qo'shish OAS namunalar donalarining mustahkamligi oshirdi, yopishqoqligi, g'ovakligi va dizel moyini shimishini kamayishi aniqlandi.

6. $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ qo'shimchali va fosfogipsli OAS olish texnologiyalari «Elektrokimyozavod» QK-AJda tajriba-sanoat sinovidan o'tkazildi va mahsulotlarning mos ravishda 1,8 hamda 1,5 tonna tajriba partiyalari ishlab chiqarildi.

7. $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ qo'shimchali va fosfogipsli OAS ishlab chiqarishni tashkil etish eksportga mo'ljallangan qo'shimcha qiymatli yangi turdagi murakkab o'g'itlar ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Eng asosiysi, ushbu o'g'itlarning 1 tonnasi tarkibida selitrage nisbatan ozuqa elementlari ko'rsatgichi 1,2 barobarga ko'proqdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.17/30.07.2022.Т.06.03 ПРИ НАВОЙСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ГОРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАВОЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ГОРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ТАХИРОВА НАРГИСА БАХРИДДИНОВНА

**ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ СЛОЖНЫХ УДОБРЕНИЙ НА ОСНОВЕ
ФОСФОГИПСА, ДОЛОМИТА, НИТРАТА И СУЛЬФАТА АММОНИЯ**

02.00.13 -Технология неорганических веществ и материалов на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Навои -2023

ВВЕДЕНИЕ (автореферат диссертации доктор философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире большинства промышленных предприятий повышение эффективности производства, снижение его вредного воздействия на окружающую среду, повышение конкурентоспособности выпускаемой продукции остаются одной из главных и приоритетных задач. В настоящее время стремление получения высоких урожаев сельскохозяйственных культур, обеспечение их потребности в минеральных удобрениях остается актуальной проблемой. Ведь одной из важных задач сельского хозяйства является удовлетворение потребности населения в качественных продуктах питания. При производстве сельскохозяйственной продукции с целью удешевления себестоимости продукции целесообразно использовать местные минеральные вещества, содержащие различные питательные элементы. При этом важно вносить азотные, фосфорные, калийные и другие комплексные удобрения, не вымываемые атмосферными водами, а оказывающие равномерное и медленное действие на растение в течение его вегетационного периода, поэтому большое значение имеет производство вышеуказанных комплексных удобрений, вносимых под сельскохозяйственные культуры.

В настоящее время одним из самых эффективных и быстродействующих азотных удобрений являются азотосеросодержащие, а также кальциевые и магниевые удобрения. Путем введения в расплав или раствор АС карбонатных, калиевых, фосфатных, сульфатных и других неорганических добавок проводятся научные исследования по разработке технологии получения комплексных удобрений с хорошими физико-химическими и товарными свойствами. В связи с этим изучается процесс получения магниезально-известково-аммиачной селитры (ИАС) на основе расплава селитры, минерала доломита (ДМ) и сульфата аммония $((\text{NH}_4)_2\text{SO}_4)$; изучение процесса получения ИАС на основе АС, ДМ и фосфогипса (ФГ); определение влияния количества добавок ДМ и ФГ на химический состав и свойства продуктов; Особое внимание уделяется получению комплексных удобрений с улучшенными физико-химическими и товарными свойствами на основе АС и подобранных добавок.

В республике достигаются ряд научно-практических результатов по производству азотно-фосфорного удобрения (АФУ) и ИАС на АО «Навоиазот» на основе переработки расплава АС совместно с Кызылкумской фосфоритовой мукой или порошкообразным известняком (CaCO_3), реализуются передовые научно-обоснованные мероприятия. По третьему направлению Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы «Снижение потерь в отраслях промышленности и повышение эффективности использования ресурсов», «Совершенствование системы предоставления агроуслуг на основе науки и инноваций, обеспечение агро-промышленных предприятий сырьем и увеличением объемов производства в 1,5 раза».

Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 г. УП -60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

В связи с этим, важным является разработка технологии получения комплексных азотосеросодержащих, а также кальциевых и магниевых удобрений, необходимых для хлопчатника и зерновых культур, на основе местного сырья: аммиачной селитры, минерала доломита, сульфата аммония и фосфогипса.

